

ISHSIZLIKNI KAMA Y TIRISH VA YOSHLARNI ISH BILAN TA'MINLASH MUAMMOLARI VA ISTIQBOLLARI

Abdurazzaqov Islombek Dilmurod o'g'li

Farg'ona Politexnika Instituti Ishlab chiqarishda

boshqaruv fakulteti 4-bosqich talabasi

Uzganbayeva Dilnoza Toxtasinovna

Farg'ona Politexnika Instituti Iqtisodiyot

kafedrasi assistenti

dilnoza.uzganbayeva@ferpi.uz

Annotatsiya: Ushbu maqola ishsizlikni qisqartirish va yoshlar bandligini ta'minlash muammolari va istiqbollari haqida bo'lib, uning mazmuni va yoritishga oslangan. Shuningdek, bugungi kunda yoshlar o'rtasidagi ishsizlikning sabablari, muammolari va yechimlari, jumladan, ishsizlikni kamaytirishga qaratilgan reja va strategiyalar hamda ular ko'rsatayotgan natijalar ko'rsatilgan.

Kalit so'zlar: Strukturaviy ishsizlik, yoshlar ishsizligi, mehnat bozorining moslashuvchanligi, innovatsiyalar va rivojlanayotgan sanoat, siyosat aralashuvi, global hamkorlik.

ПРОБЛЕМЫ И ПЕРСПЕКТИВЫ СОКРАЩЕНИЯ БЕЗРАБОТИЦЫ И ОБЕСПЕЧЕНИЯ ЗАНЯТОСТИ МОЛОДЕЖИ

Аннотация: Данная статья посвящена проблемам и перспективам снижения безработицы и обеспечения занятости молодежи и основана на освещении ее содержания и сущности. Также показаны причины, проблемы и пути решения молодежной безработицы сегодня, включая планы и стратегии, направленные на снижение безработицы и результаты, которые они показывают.

Ключевые слова: структурная безработица, безработица среди молодежи, гибкость рынка труда, инновации и развивающиеся отрасли, политическое вмешательство, глобальное сотрудничество.

PROBLEMS AND PROSPECTS OF REDUCING UNEMPLOYMENT AND PROVIDING YOUTH EMPLOYMENT

Abstract: This article is about the problems and prospects of reducing unemployment and ensuring youth employment, and is based on highlighting its content and essence. Also, the causes, problems and solutions of youth today, including plans and strategies aimed at reducing unemployment and the results they show, are shown.

Keywords: Structural unemployment, youth unemployment, labor market flexibility, innovation and emerging industries, policy intervention, global cooperation.

KIRISH

Yoshlar mamlakat va hududlardagi o‘zgaruvchi jarayonlar, iqtisodiy o‘shish va ilmiy-texnikaviy taraqqiyotning asosiy davomchilari hisoblanadi. Respublikamiz Prezidenti bugungi kunda faqat yuksak bilimli, zamonaviy fikrlaydigan, intellektual rivojlangan va professional tayyorgarlikka ega bo‘lgan yoshlarga sifatli, jadal va innovatsion taraqqiyotning eng muhim sharti va garovi bo‘la olishi, aynan ular mamlakatning buyuk kelajagini ta‘minlashi mumkinligi, shunga ko‘ra, O‘zbekistonda kadrlar tayyorlash masalasi davlat siyosatining eng ustuvor yo‘nalishi etib belgilanganligi, mamlakatimizda kadrlar tayyorlash tizimi amalga oshirilayotganligi bir necha bor ta‘kidlangan. Yoshlarga oid davlat siyosati doirasida ijtimoiy-iqtisodiy, tashkiliy va huquqiy chora-tadbirlarni tizimli ravishda amalga oshiruvchi davlat boshqaruv organi sifatida O‘zbekiston Respublikasi Yoshlar ishlari agentligi tashkil etildi. Har bir mahalla, tuman, shahar va viloyat kesimida ijtimoiy, huquqiy, psixologik qo‘llab-quvvatlashga, bilim va kasb o‘rganishga ehtiyoji va ishtiyoqi bor bo‘lgan ishsiz yoshlar kiritiladigan “Yoshlar daftari” tizimi joriy etildi.¹²

Mahallalarda yoshlar bilan ishlash masalalarini muvofiqlashtirish bo‘yicha Respublika komissiyasi ishsiz yoshlar va mehnat bozoriga kirib kelishi kutilayotgan bitiruvchilarning “fuqarobay” bandligini ta‘minlash bo‘yicha “Yoshlar bandligi dasturlari”ni ishlab chiqib, xalq deputatlari sessiyalarida tasdiqlash choralarini ko‘radi. Aniqlanishicha, yil boshidan buyon jami 1,5 milliondan ortiq yangi ish o‘rinlari yaratilganiga qaramay, "Yoshlar balansi"ga kiritilgan 105 ming yoshlar bandligi ta‘minlangan bo‘lsa, 180 ming nafardan ortiq yoshlar esa ishsiz qolmoqda. Jami 9 mln.nafar yoshlar “yaxshi”, “o‘rta”, “og‘ir” toifalarga ajratilgan. O‘rganishlar o‘tkazilgan hududlarda ayrim muammo va kamchiliklar aniqlanib, ularni bartaraf etish bo‘yicha yordam ko‘rsatildi. Xususan, "og‘ir" toifadagi 364 ming nafar yoshlarning murojaatlaridan 17 foizi hal etilmagan. Respublika komissiyasi a‘zolari “qizil” toifadagi yoshlar bilan birma-bir muloqot qilib, 4,3 ming nafar yoshning muammolari joyida hal etildi. Bundan tashqari, bor-yo‘g‘i 374 ming nafar yoshlar o‘zini o‘zi band qilgan.

Andijon viloyati joriy yilda quyidagicha ish o‘rinlari yaratishni reja qilgan:

- investitsiya loyihalari hisobiga 40 mingta;
- paxta va g‘alladan bo‘shagan yerlarni aholiga bo‘lib berish hisobiga 75 mingta;

¹ O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning BMT Bosh Assambleyasining 72-sessiyasida so‘zlagan nutqi.

² <https://.strategy.uz>

- mavsumiy ishlar orqali 200 mingta;
- mahallalarda mikromarkazlar tashkil etish, sanoat zonalarida ishlab chiqarishni kengaytirish va markaziy ko‘chalarni xizmatlarga ixtisoslashtirish, savdo-servis obyektlarini barpo etish hisobidan 135 mingta;
- oilaviy tadbirkorlik dasturlari doirasida ajratiladigan kreditlar hisobidan 20 mingta.

Qashqadaryo viloyati Shahrisabz tumanida quyidagi ishlar belgilangan:

- kartoshkachilikni yo‘lga qo‘yish orqali 10 ming;
- bog‘larning sug‘orish tizimini tiklash hisobiga 2 ming;
- Ko‘kdalada tarvuz ekishni yo‘lga qo‘yish orqali 32 ming;
- Mirishkorda dala chetlariga tut ektirish hisobiga pillachilikda qo‘shimcha 6 ming aholini daromadli qilish.

“Qolgan viloyatlar-chi? Bu borada hududlarning dasturlari bilan birma-bir tanishib chiqdim. Ochiq aytish kerak, ayrim viloyat, tuman va shahar hokimlari masalaning ichiga kirmagan”, — dedi prezident.

2023-yilda tadbirkorlar faoliyatini kengaytirish uchun kredit miqdori amaldagi 225 mln so‘mdan 300 mln so‘mgacha, Dehqon xo‘jaliklariga garovsiz kredit miqdori 50 mln so‘mgacha oshiriladi (amalda 33 mln so‘m). Avval oilaviy tadbirkorlik dasturlari doirasida kredit olib, yaxshi natija ko‘rsatgan tadbirkorlar ushbu dasturlar doirasida yana imtiyozli kreditlar olishi mumkin bo‘ladi (hozir faqat bir marta olish mumkin). Joriy yilda oilaviy tadbirkorlik dasturiga 12 trln so‘m beriladi. Prezident imzolagan qarorga ko‘ra, oilaviy tadbirkorlikka qo‘shimcha \$300 mln ajratiladi. Lekin, bu yil ajratilishi kerak bo‘lgan yerlarni ko‘pi hali zaxiraga olinmagan, ishlar pala-partish tashkil qilinayapti. Mahallaning ichidagi kichik-kichik qulay maydonlar qolib, dalaning o‘rtasidagi katta yerlarni ajratish holatlari ham bor.³

XULOSA

Yuqorida ta’kidlab o‘tilganidek ishsizlikni kamaytirish va yoshlarni ish bilan ta’minlash boyicha 2023-yil yurtimizda jadal ishlar olib borilgan, ko‘plab ish o‘rinlari yaratilgan, qishloq xo‘jaligiga ham alohida e’tibor berilgan. Xulosa qilib aytganda, ishsizlik va yoshlar bandligini hal qilish ushbu muammolarga xos bo‘lgan muammolar va imkoniyatlarni tan oladigan ko‘p qirrali yondashuvni talab qiladi. Ishsizlik muammolari, jumladan, tarkibiy, davriy va geografik nomutanosibliklar, shuningdek, yoshlarni ish bilan ta’minlashdagi to’siqlar, masalan, malakalarning mos kelmasligi va cheklangan ish tajribasi, yengib o’tish kerak bo‘lgan muhim to’siqlardir. Biroq, bu qiyinchiliklar orasida ishsizlikni kamaytirish va yosh ishchilar salohiyatini ishga solishning istiqbolli istiqbollari mavjud. Ta’lim va malaka oshirish, maqsadli bandlik dasturlari hamda tadbirkorlik va innovatsiyalarni rivojlantirishga qaratilgan sa’y-

³ <https://.Spot.uz>

harakatlarni o'zida mujassam etgan keng qamrovli strategiyalarni amalga oshirish orqali jamiyatlar ishsizlikning salbiy oqibatlarini yumshata oladi, yoshlarning iste'dod va salohiyatini ochib beradi. Ta'lim va kasb-hunar ta'limiga sarmoya kiritish, kichik biznesni qo'llab-quvvatlash va inklyuziv ishga yollash amaliyotini rivojlantirish ishsizlikni kamaytirish va yoshlar uchun mazmunli bandlik imkoniyatlarini yaratish yo'lidagi muhim qadamdir.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning BMT Bosh Assambleyasining 72-sessiyasida so'zlagan nutqi.
2. <https://.strategy.uz>
3. <https://.Spot.uz>